

# SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2022- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)




*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*

*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*


*Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022-yil 1-sentabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.*



Mamlakatimizda qulay ishbilamonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)






*Mas'uliyati cheklangan jamiyat birlik*



*Xususiy korxonona birlik*



**Mas'uliyati cheklangan jamiyat**

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


# Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra)

birlik




o'tgan yilga nisbatan




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2021- y. ■ 2022- y.



### Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; - aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar- avgust oylarida, birlikda)




# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-avgust oylarida, birlikda)




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi

(2022- yil yanvar-avgust oylarida, umumiy sonidagi ulushi, foizda)



2022- yil yanvar-avgust oylarida 3 095 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 1 908 ta, oilaviy korxonalar - 651 ta, xususiy korxonalar - 355 ta, muassasalar - 98 ta va boshqalar - 83 tani tashkil etdi.

## Oilaviy korxonalar soni (1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra 6 266 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 533 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 5 690 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 438 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.


2022- yil yanvar- avgust oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 651 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 325 taga yoki 0,7 martaga kamayganligini ko'rish mumkin.

## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, 13 768 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 204 taga yoki 19,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 13 078 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 061 taga yoki 18,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar- avgust oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 908 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 229 taga yoki 0,9 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.








Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, 627 tani tashkil etib, ulardan 604 tasi yoki 96,3 % faoliyat ko'rsatmoqda.


Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 168 taga yoki 16,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar- avgust oylarida viloyatimizda 59 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)






## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



# Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni


(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil
<b>Jami</b>	<b>5 473</b>	<b>7 150</b>	<b>8 785</b>	<b>11 017</b>	<b>13 078</b>
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	597	730	1 130	1 590	2 016
Sanoat	870	1 173	1 378	1 744	1 886
Qurilish	908	1 293	1 490	1 749	1 985
Savdo	1 615	2 151	2 718	3 508	4 345
Tashish va saqlash	516	574	625	641	672
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	202	276	345	402	494
Axborot va aloqa	78	97	107	133	161
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	60	88	98	152	190
Boshqa turlar	627	768	894	1 098	1 329

# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

12




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil
<b>Jami</b>	<b>116</b>	<b>300</b>	<b>393</b>	<b>515</b>	<b>604</b>
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	28	82	98	114	129
Sanoat	45	80	108	133	133
Qurilish	5	15	21	37	40
Savdo	23	81	118	172	229
Tashish va saqlash	5	6	7	8	12
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1	14	17	22	24
Axborot va aloqa	1	2	2	1	2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	3	4	8	8
Boshqa turlar	7	17	18	20	27

# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




# Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Surxondaryo viloyati	604	152	452
Termiz sh.	346	37	309
tumanlar:			
Oltinsoy	6	5	1
Angor	22	6	16
Bandixon	4	2	2
Boysun	9	6	3
Muzrabot	16	7	9
Denov	22	11	11
Jarqo'rg'on	15	9	6
Qumqo'rg'on	14	7	7
Qiziriq	10	1	9
Sariosiyo	21	11	10
Termiz	48	15	33
Uzun	42	21	21
Sherobod	14	7	7
Sho'rchi	15	7	8

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 32 288 tani tashkil etib, jamiga nisbatan hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz shahri (18,0 %), Denov (11,7 %), Jarqo'rg'on (8,1 %), Sho'rchi (6,9 %), Qumqo'rg'on (6,7 %), Sherobod (6,6 %), Termiz (6,5 %), Sariosiyo (5,2 %), Uzun (5,2 %), Angor (4,8 %), Boysun (4,8 %), Qiziriq (4,7 %), Muzrabot (4,7 %), Oltinsoy (3,9 %) va Bandixon (2,2 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2022- yil yanvar- avgust oylarida, birlikda)

2022- yil yanvar- avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 3 095 tani tashkil etib, jamiga nisbatan hududlar kesimida taqsimlanganda ularning Termiz sh. (16,4 %), Denov (11,5 %), Jarqo'rg'on (7,8 %), Sherobod (7,7 %), Qumqo'rg'on (6,3 %), Boysun (6,0 %), Sho'rchi (6,0 %), Angor (5,5 %), Sariosiyo (5,4 %), Muzrabot (5,3 %), Uzun (4,7 %), Termiz (4,5 %), Bandixon (4,5 %), Oltinsoy (4,4 %) va Qiziriq (4,0 %) tumanlari ulushiga to'g'ri keladi.




# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni

(2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 13 078 tani tashkil etib, jamiga nisbatan hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz sh. (25,6 %), Denov (9,7 %), Termiz (8,6 %), Jarqo'rg'on (7,4 %), Sherobod (6,6 %), Qumqo'rg'on (5,6 %), Sho'rchi (5,5 %), Boysun (5,0 %), Angor (4,8 %), Qiziriq (4,6 %), Muzrabot (4,3 %), Sariosiyo (4,2 %), Uzun (3,5 %), Bandixon (2,3 %) va Oltinsoy (2,3 %) tumanlari ulushiga to'g'ri keladi.






2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2022- yil yanvar- avgust oylarida, birlikda)




2022- yil yanvar- avgust oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 651 tani tashkil etib, jamiga nisbatan hududlar kesimida taqsimlanganda, Denov (11,8 %), Boysun (11,5 %), Oltinsoy (11,1 %), Termiz sh. (8,6 %), Qiziriq (6,6 %), Sherobod (6,6 %), Jarqo'rg'on (5,8 %), Sariosiyo (5,5 %), Uzun (5,4 %), Bandixon (4,9 %), Angor (4,9 %), Muzrabot (4,8 %), Sho'rchi (4,6 %), Termiz (4,2 %) va Qumqo'rg'on (3,7 %) tumanlari ulushiga to'g'ri keladi.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022- yil yanvar- avgust oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar


**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- oktabrdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- sonli qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni  
yuritish bo'limi  
Tel. (76) 225-65-90**